

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINI OMMAVIY TADBIRLAR O‘TKAZISH
JARAYONIDA BOSHQA HMQO(DAVLAT ORGANLARI) ORGANLARI
BILAN HAMKORLIGI.**

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI
HUQUQUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI KAFEDRASI*

Xamdamov Amirbek Xatam o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
kunduzgi ta’lim 3-kurs 310-guruh kursanti*

Annotatsiya: mazkur maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ommaviy tadbirlarini o‘tkazish jarayonidagi asosiy vazifalarini va ushbu vazifalarni amalga oshirish davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlarni, tadbirlar davomida yuz berishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari, profilaktika inspektorining ushbu huquqbuzarliklarni oldini olish jarayonida jamoatchilik ishtiroki, ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va ta’minlashga oid chora tadbirlar, ommaviy tadbirlar davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar natijasida jabrlangan shaxslarni himoya qilishning huquqiy asoslar, profilaktika inspektorining ushbu faoliyati doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo, shuningdek, ayrim turdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha bir qator takliflar, yuqorida keltirib o‘tilganlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy tadbirlar tushunchasi, ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va ta’minlashga oid chora tadbirlar, ommaviy tadbirlar davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar natijasida jabrlangan shaxslarni himoya qilishning huquqiy asoslar.

Ichki ishlar organlarining fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilishdan, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini amalga oshirishda ularning eng asosiy hamkorlik sube’ktlari bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlaridir. Shu bilan bir qatorda ommaviy tadbirlarni tashkil yetish va o‘tkazishda Profilaktika inspektori ham bevosita quyidagi Huquqni muhofaza qiluvchi tegishli organlar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshirishda 2014 yil 14 may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” dagi qonunning 9-moddasida ko‘rsatilgan quydagi davlat organlari bilan xamkorlikda amalga oshiradi:

Prokuratura organlari

Davlat xavfsizlik xizmati organlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizlik xizmati organlari

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari

Adliya organlari

Davlat bojxona xizmati organlari

Davlat soliq xizmati organlari

Bandlik va mehnat munosabatlari organlari

Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari

Sog‘liqni saqlash tizimini davlat tomonidan boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi organlari.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan xamkorliging natijasida sodir etilayotgan jinoyat va xuquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, ularni xisobini yuritish ishlari amalga oshirilmoqda. Shunday ekan xamkorlikni tashkil etilayotgan vaqtda organlar o‘rtasidagi aniq maqsad va vazifalar belgilanib olinishi zarur. Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar negizidagi hamkorlik quyidagi belgilar bilan o‘ziga xos xususiyatga ega:

- birgalikdagi faoliyatning subyekt, obyekt va predmeti mavjudligi;
- faoliyatga umumiy maqsad, vazifa va yo‘nalishlari mavjudligi;
- o‘zaro bir birini tushunish, o‘zaro yordam ko‘rsatish va o‘zaro qo‘llabquvvatlashga asoslanish;
- ijobiy natijalarga erishish uchun intilish;
- hamkorlikning mukammal (optimal), har ikki tomon uchun maqbul bo‘lgan shakl va usullarini qo‘llanishi;
- axborot ta’minoti va tahlilga egaligi;
- ishtirokchilarning hamkorlikni tashkil etish uchun mas’ulligi va birgalikdagi faoliyatning baholab borilishi. Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar negizidagi xamkorlik quyidagi tamoyillarga asosan tashkil etiladi:
- Konstitutsiya va qonun ustuvorligi;
- oldindan ishlab chiqilgan va kelishilgan reja asosida o‘tkazilishi;
- belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

– har qanday masalalarning uyushqoqlik va tezkorlik bilan hal etilishi. Ichki ishlar organlarining huquqiy asoslardan biri “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonundir. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasida ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maksadida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to‘g‘risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi. Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda, jinoyatlar va ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo‘qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ichki ishlar organlarining yuqorida ko‘rsatilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ular hamkorligining tushunchasiga alohida-alohida to‘xtalib yoritish maqsadga muvofiq. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi hamkorligining tushunchasi va vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, qonunlari va boshqa qonun hujjatlarda Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida quyidagi vakolatlari keltirib o‘tilgan:

*huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish, va amalga oshirishda ishtirok etish,

*huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish

*mamlakatdagi, ayrim mintaqalardagi, tumanlar va shaharlardagi kriminogen vaziyatni o‘rganish,

*mavjud kuchlar va vositalardan huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda foydalanilishi samaradorligi tahlilini amalga oshirish,

*huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish huquqbuzarliklarning, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarning hisobini yuritish,

*mazkur ma‘lumotlarning tahlilini amalga oshirish

*ushbu Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan shaxslarni profilaktik hisobga olishni amalga oshirish,

*faoliyati taqiqlangan tashkilotlarga va diniy-ekstremistik yo‘nalishdagi guruhlariga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan chora-tadbirlar ko‘rish,

*pasport-viza rejimiga,

*fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan o‘qotar qurolni saqlash qoidalari hamda tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta‘minlash,

*jinoyatlarni fosh etishda va tergovga, sudga kelishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslar hamda bedarak yo‘qolgan fuqarolar qidiruvida ishtirok etishi

*ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish kabi vakolatlariga ega hisoblanadi. Bundan tashqari yurtimizda keng nishonlanayotgan turli xil bayramlar, shodiyonalar, davlat tadbirlari va to‘y-u tomoshalarni tinch va osuda o‘tishini, ushbu ommaviy tadbirlarda ishtirok yetayotgan fuqorolarning hayoti va xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek ularning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetishini oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil yetishi maqsadga muvofiq. Profilaktika inspektorlari ommaviy tadbirlarni tinch va osuda o‘tishini taeminlash maqsadida quyidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan tegishli tartibda hamkorlik olib borish zarur Davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi hamkorligining tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, qonunlari va boshqa qonun hujjatlari asosida tinchlik va xavfsizlikka qarshi huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning hisobini yuritish, shuningdek, chegara va tog‘li hududlarga tutash bo‘lgan tuman, shahar, shaharcha yoki qishloqlarda aholi Bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organlarining jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida «Jaholatga qarshi ma‘rifat» ezgu g‘oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo‘lgan xukubuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta‘siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e‘tibor qaratish kabi ustuvor yo‘nalishlari ijrosini ta‘minlashda Ichki Ishlar Organlarining Davlat Xavfsizlik Xizmati bilan hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Davlat, uning tegishli organlari jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun, eng muhimi, insonning muqaddas huquqi – yashash huquqini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish uchun tashkil etilgani shubhasiz. Shunday organlardan biri bo‘lgan Davlat Xavfsizlik Xizmati bilan ham Ishlar Organlarining muayyan yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi. Ichki ishlar

organlari bilan Davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlari o'rtasidagi hamkorligi xavfsizlikka taxdid soladigan illatlarning, jumladan diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf qilish choralari ko'rish hamda bu borada huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, muqaddam tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktikani tashkil etish, xududda sodir etilgan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni ochish, Davlat chegaralari daxlsizligiga'minlashda o'z aksini topadi. Shuningdek ommaviy tadbirlar o'tkazilishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan turli xil jinoiy tajovuzlar va xudkushliklarni, terrorchilik harakatlari bilan bog'liq salbiy holatlarni oldini olish, ekstremitistik oqimlar tomonidan amalga oshirilish mumkin bo'lgan noqonuniy xatti - harakatlarni oldini olishda va boshqa davlat ahamiyatiga bog'liq bo'lgan falokatlarni oldini olig maqsadida o'zaro hamkorlikni amalga oshirishi va zarur ma'lumotlar almashinuvini tashkil yetishi kabi vazifalarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi hamkorligining tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi tug'risida»gi qonunining 12¹-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizlik xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari berilgan, shu jumladan huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar xamda muassasalar bilan hamkorlik qilishi ko'rsatib o'tilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklar sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarini aniqlaydi, bartaraf etadi, qo'riqlanuvchi shaxslarning manfaatlarini, xavfsizligi va daxlsizligiga qarshi huquqbuzarliklarni sodir etilishiga moyil bo'lgan shaxslar xisobini yuritadi. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarining vazifalari hisoblanadi:

*ichki ishlar organlari bilan birgalikda xizmat o'tash va zarur bo'lganda ular faoliyatining jangovar himoyasini ta'minlash;

*ichki ishlar organlariga ommaviy tadbirni o'tkazish obyektiga tutash hududda jismoniy to'siq hosil qilish va ruxsat bilan kiritish tartibini amalga oshirishda, muhandislik-texnik vositalardan foydalangan holda obyektga borish yo'llarini o'rab olish chegaralarini hosil qilishda, shuningdek, avtotransport vositalarini ko'zdan kechirishda ko'maklashish;

*ommaviy tadbirlarni o'tkazishda obyektning ko'rsatilgan joylarda zaxira kuchlari va vositalarining jangovar shay holatini ta'minlash;

*terrorchilarni qo'lga olish, zararsizlantirish va yo'q qilish tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish;

*jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining bo'linmalariga, boshqa manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga ko'maklashish.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarining huquqlari hisoblanadi:

*ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektining hududini o‘rab olishda (qurshab olishda) ishtirok etish;

*ichki ishlar organlari bilan birgalikda zaxira kuchlarini shakllantirish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amaldagi maxsus rejalarga muvofiq zarur choralar ko‘rish.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalarining vazifalari hisoblanadi:

*favqulodda vaziyatlarni, shu jumladan yong‘inni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlar omillarini o‘z vaqtida aniqlash, ularning profilaktikasini va yuzaga kelishining barvaqt oldi olinishini ta‘minlash;

*Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining (FVDT) kuchlari va vositalarini tabiiy va texnogen tuzdagi favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yong‘inlar yuzaga kelganda ularni bartaraf etish va qutqaruv ishlariga jalb qilish;

*ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida obyektida radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik) himoyani, yong‘inlarning oldini olish va qutqaruv (shu jumladan suvda qutqaruv) ishlarini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalarining huquqlari hisoblanadi:

*tabiiy va texnogen tuzdagi favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yong‘inlarning oldini olish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektini oldindan tekshirish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish vaqtida ommaviy tadbir obyektlari qutqaruv tuzilmalarining rahbarlari va shaxsiy tarkibini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, ommaviy tadbirni o‘tkazish dasturida ishtirok etadigan artistlar, sportchilar va boshqa shaxslarga yuz berish ehtimoli yuqori bo‘lgan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda harakat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga qaratilgan tadbirlarni tashkil qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining bo‘linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar prokuratura organlarining vazifalari hisoblanadi:

*ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida va unga tutash hududda yuzaga kelgan tezkor holat to‘g‘risida ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati, Milliy gvardiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan tezkor axborot almashish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish davrida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilganligini nazorat qilish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish davrida yuzaga kelgan kutilmagan holatlarning (yong‘inlar, avariya va boshqalar) kelib chiqish omillari va sabablarini o‘rganish hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha aybdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilishini ta‘minlash.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar prokuratura organlarining huquqlari hisoblanadi:

*ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlardan ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida va unga tutash bo‘lgan hududda yuzaga kelgan tezkor holat to‘g‘risida axborot olish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish davrida huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan ichki ishlar organlari tomonidan tuzilgan hujjatlarning qonuniyligini o‘rganish;

*ommaviy tadbirni o‘tkazish davrida kutilmagan holatlarning (yong‘inlar, avariya va boshqalar) yuzaga kelish omillari va sabablarini tekshirish, shuningdek, aybdor shaxslarga nisbatan tergov tadbirlarini o‘tkazish.

Prokuratura organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi organlarining vazifalari hisoblanadi:

*ommaviy tadbir ishtirokchilariga, jamoat tartibini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash tadbirlariga jalb qilingan xodimlar va harbiy xizmatchilarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun doimiy tayyor holatni saqlash;

*favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga shoshilinch tibbiy va birinchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatish;

*favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, jabrlanganlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etish (avariya-qutqaruv xizmatlari bilan birgalikda).

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi organlarining huquqlari hisoblanadi:

*ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti hududida tez tibbiy yordam brigadalarining navbatchiligini, jabrlanganlarning eng yaqin joydagi davolash muassasalariga shoshilinch yetkazilishini ta'minlash;

*favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni tibbiy muassasalarga vaqtincha joylashtirish va davolashni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Prezident SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim. T 2017 y

2. Prezident SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. T 2018 y.

3. Prezident SH.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davot ettirib yuksak marralarga erishamiz. T 2018 y.

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. T.2017-yil

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. T.2020-y

II. Qonun va normativ hujjatlar.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi T 2023 y.

2.2. O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qism T 2023 y

2.3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi T. 2021 y

2.4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi T 2023 y

2.5. O'zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi T 2023 y

2.6. O'zbekiston Respublikasining JIK T 2023 y

2.7. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi "Axolini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi qonuni

2.8. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar zrtasida nazoartsizlik va huquqbuzarliklar profilkikasi to'g'risida"gi qonuni.

2.9. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklarni oldini olish to'g'risida"gi qonuni.

2.10. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 25 dekabrda "Ijtimoiy sheriklik o'g'risida"gi qonuni.

2.11.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Haraktlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi 4947-sonli farmoni.

2.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5005-sonli Farmoni.

2.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 2883-sonli qarori.

2.15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2896 son qarori.

ELEKTRON TA‘LIM RESURSLARI

1. [http:// akadmvd.uz](http://akadmvd.uz) (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)
2. [http:// lex.uz](http://lex.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi) 114
3. [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)
4. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Axborot ta‘lim tarmog‘i)
5. [http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy Universiteti)
6. [http:// www.tsil.uz](http://www.tsil.uz) (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti)